



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA QOIDALARI
VA ME’YORLARI, GIGIYENA NORMATIVLARI**

**AVTOTA’MIRLASH VA VULKANIZATSIYA USTAXONALARI UCHUN
GIGIYENIK TALABLAR**

**O‘zbekiston Respublikasining
0226-07-sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA QOIDALARI VA
ME’YORLARI, GIGIYENA NORMATIVLARI**

«TASDIQLAYMAN»
O‘zbekiston Respublikasining Davlat
bosh sanitariya vrachi
_____ **B.I. Niyazmatov**
«30» aprel 2007-yil

**AVTOTA’MIRLASH VA VULKANIZATSIYA USTAXONALARI UCHUN
GIGIYENIK TALABLAR**

O‘zbekiston Respublikasining
0226-07-sonli SanQvaM

Rasmiy nashr

Sanitariya normalari, qoidalari va gigiyenik normativlarga rioya qilmaslik qonun bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Ushbu sanitariya qoidalari O'zbekiston Respublikasidagi avtota'mirlash va vulkanizatsiya ustaxonalari faoliyati davomida ishchilar va aholi salomatligini muhofaza qilish maqsadida o'rnatilgan.

Ushbu sanitariya normalari va qoidalariga mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar hamda alohida shaxslar rioya qilishlari shart.

Ishlab chiquvchi muassasalar:

O‘zR SSV Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti
O‘zR SSV Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati respublika markazi
Toshkent tibbiyot akademiyasi (O‘zR SSV TTA)

Mualliflar:

Ibragimova G.Z. - SGKKI sanoat toksikologiyasi laboratoriyasi mudiri,
t.f.n.;

Shtrunova M.I. - O‘zR SSV DSENRM Mehnat gigiyenasi bo‘limi mudiri;

Iskandarova G.T. - O‘zR SSV TTA Kommunal gigiyena va mehnat gigiyenasi
kafedrasi mudiri, t.f.d., professor.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1 Ushbu sanitariya qoidolari xalq xo'jaligining barcha sohalaridagi yangi avtota'mirlash sexlarini loyihalashda, mavjudlarini qayta qurishda va ulardan foydalanishda bajarilishi majburiy hisoblanadi.

1.2 Ushbu qoidalarda nazarda tutilgan talablar yangi loyihalashtirilayotgan va faoliyat yuritayotgan korxonalarda tasdiqlangan kundan boshlab amalga oshirilishi shart.

1.3 Avtota'mirlash va vulkanizatsiya ustaxonalarida ishlovchilarning sanitariya talablarini tartibga solish va sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha amaldagi tarmoq standartlari, qoidolari va boshqa idoraviy hujjatlar tasdiqlangan kundan boshlab bir yil ichida ushbu qoidalarga muvofiqlashtirilib olinishi lozim.

1.4 Ushbu qoidalarining bajarilishi uchun javobgarlik avtota'mirlash va vulkanizatsiya ishlarini olib boruvchi korxona va tashkilotlar rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

2. ISHLAB CHIQUV OMILLARINING QISQACHA TAVSIFI VA ULARNING ISHLOVCHILAR ORGANIZMIGA TA'SIRI

Avtomobilni ta'mirlash jarayonida ishchilar ishlab chiqarish muhiti omillari majmuiga duch keladilar, ular orasida xavfli va zararli omillar guruhi (XZOG) alohida ajratib ko'rsatilgan. Avtomobillarni ta'mirlashda eng keng tarqalgan XZOGlarning xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval

Zararli omil, xavflilik sinfi, REM, agregat holati	Texnologik jarayon, vazifasi	Inson organizmiga ta'siri
Qo'rg'oshin, I sinf, 0,01 mg/m ³ , a.	Radiator va yoqilg'i baklarini payvandlash, akkumulyator plastinalarini ta'mirlash.	Zaharlanishning dastlabki bosqichida charchash, uyquchanlik, bosh og'rig'i, xotira buzilishi kuzatiladi. Surunkali zaharlanish - periferik va markaziy asab tizimining izdan chiqishi, qo'rg'oshin falajliklari. Erigan qo'rg'oshinni sachrash natijasida termik kuyish xavfi mavjud.
Tetraetilqo'rg'oshin, I sinf, 0,005 mg/m ³ , p.	Etil suyuqligi tarkibiga kiradi.	Nafas yo'llari va teri orqali tezda singib o'tadi. Qo'rg'oshin kabi zaharlanishlarni keltirib chiqaradi.
Etilangan benzin, IV sinf, 100 mg/m ³ , p.	Yonilg'i	Qonga kirib, umumiy ahvolning buzilishi, ozib ketish, asab tizimi faoliyatining izdan chiqishiga olib keladi.

Ligroin, IV sinf, 300 mg/m ³ , p. Uglerod oksidi, IV sinf, 20 mg/m ³ , p.	Chiqindi gazlar tarkibida mavjud	O'tkir zaharlanishning oqibatlari - markaziy asab tizimi faoliyatining buzilishi, xotira va diqqatning pasayishi, falajlanish, ko'z to'r pardasiga qon quyilishi. Surunkali zaharlanish - bosh og'rig'i, bosh aylanishi, uyqusizlik, holsizlik, xotiraning pasayishi, uyquchanlik.
Akrolein, II sinf, 0,2 mg/m ³ , p.	Dvigatel og'ir yonilg'ida ishlayotganda chiqindi gazlar tarkibida bo'ladi.	Yuqori nafas yo'llarining kuchli ta'sirlanishiga, ko'z shilliq qavatlarining keskin yallig'lanishiga, bosh aylanishiga sabab bo'ladi.
Azot oksidlari, III sinf, 5,0 mg/m ³ , p.	Chiqindi gazlar tarkibida mavjud.	Zaharlanish belgilari 6 soatdan keyin yo'tal, nafas qisilishi, hansirash bilan namoyon bo'ladi, o'pka shishi ehtimoli bor. Surunkali zaharlanishlarda - ko'krakda og'riq, yo'tal, bosh og'rig'i kuzatiladi.
Benzol, II sinf, 15,0 mg/m ³ (m.r.) 5,0 mg/m ³ (o's.), p.	Avtomobillar uchun benzin bilan aralashtirilgan yonilg'i.	Surunkali zaharlanishda bosh og'rig'i, bosh aylanishi, tez charchash, uyquchanlik, ba'zan dermatit va ekzemalar paydo bo'ladi. O'tkir zaharlanishda bosh aylanishi, quloqlarda shovqin, mushaklar bo'shashishi kuzatiladi.
Cr+3 bo'yicha xrom kislotasi, I sinf, 0,01 mg/m ³ , a.	Elektrolitik xromlash	Burun va tomoq shilliq qavatini zararlaydi. Qo'l va yuz terisiga zararli ta'sir ko'rsatib, ekzemalar paydo qiladi.
O'yuvchi ishqorlar, II sinf, 0,5 mg/m ³ , a.	Avtomobil detallarini yog'sizlantirish	Dermatitlar paydo bo'ladi, teri muguz qavatining yumshashi va ko'chib tushishi, terining yorilishi va
Etilenglikol, III sinf, 5,0 mg/m ³ , p+a.	Avtomobil sovitish tizimlaridagi sovutuvchi suyuqlik.	Markaziy asab tizimi va buyraklarni zararlaydi. Tasodifan oz miqdorda yutib yuborilsa ham, o'limga olib kelishi mumkin.
Metanol, III sinf, 5,0 mg/m ³ , p.	Lok, smola va yog'larni erituvchi modda.	Ichilganda, bug'i nafas olganda va teriga ta'sir qilganda zaharlanish mumkin. Zaharlanishning yengil shakli - bosh og'rig'i, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi va qusish. O'rtacha og'irlikdagi zaharlanish - ko'rish qobiliyatining buzilishi. Og'ir shakldagi zaharlanish - yurak va nafas olish faoliyatining pasayishi, hushdan ketish va o'lim yuz berishi mumkin.
Epoksid smolasi EA - II sinf, 0,1 mg/m ³ , p. E-23-111 sinf, 4 mg/m ³ , a.	Teshiklar, yoriqlarni ta'mirlash, yuzalarni tekislash.	Teri kasalliklarini keltirib chiqaradi. Ko'zga tushishi xavfli.

Kerosin IV sinf, 300 mg/m ³ , p.	Etillangan benzinda ishlagan dvigatel detallarini tetraetilqo'rg'oshin pardasi, qo'rg'oshin bromidi cho'kmasi va qo'rg'oshin oksididan tozalash	Benzin va ligroin kabi ta'sir ko'rsatadi
Kuchli kislotalar va o'yuvchi ishqorlar Sulfat kislota - II sinf, 1,0 mg/m ³ , a. Xlorid kislota - IIa sinf, 5,0 mg/m ³ , p. O'tkir yo'naltirilgan ta'sirga ega. O'yuvchi ishqorlar (NaOH ga qayta hisoblanganda) - II sinf, 0,5 mg/m ³ , a.	Akkumulyator batareyalariga quyiladigan elektrolit tarkibiga kiradi.	Shilliq qavatlar va teriga keskin ta'sirlanish va kuydirishni keltirib chiqaradi, kuyish va to'qima oqsillarining ivishiga sabab bo'ladi. Surunkali zaharlanish - konyunktiva, shilliq qavat, yuqori nafas yo'llarining ta'sirlanishi, gipertrofik va atrofik rinitlar, burun to'sig'ining yaralanishi va teshilishi mumkin. Bronxial astma, tishlar va teri zararlanishi kuzatiladi.
Asbest, IV sinf, 2,0 mg/m ³ (m.r.), a. 0,5 mg/m ³ (s.s.)	Tormoz tizimlarida qo'llaniladi.	Uzoq muddatli ta'sir - 8 yildan ortiq - surunkali bronxit va o'pka emfizemasi ko'rinishida namoyon bo'ladi.
Surma (sulfidlar va xloridlar) Sulfidlar - 3-5 valentli. II-III sinf, 1,0-2,0 mg/m ³ , a, a. Xloridlar III sinf, 0,5 mg/m ³ , b+a.	Quyidagilarda ishlatiladi: kauchukni vulkanizatsiya qilishda	Bug'larning ta'siri - ko'z shilliq qavatlar (shox pardaning shikastlanishi mumkin) va yuqori nafas yo'llarining ta'sirlanishiga olib keladi
Vulkanizatsiya gazlari (aminobirikmalar bo'yicha) III sinf, 0,5 mg/m ³ , b.		Nafas olganda metall isitmasi belgilari paydo bo'ladi. Oshqozonga tushganda - ovqatdan zaharlanish alomatlari kuzatiladi.
Mineral moylar, texnologik moylovchi moddalar, moylovchi-sovutuvchi suyuqliklar. III sinf, 0,5 mg/m ³ , a.	Harakatlanuvchi detallar va qismlarga ishlov berish. Mexanika, temirchilik, presslash va boshqa sexlarda tokarlik, yo'nish ishlari bajariladi.	Surunkali gipertrofik, kamroq atrofik rinitlar, faringitlar, bronxitlar. Pnevmoskleroz rivojlanishi mumkin. Vegetativ-tomir buzilishlari, vegetativ polinevritlar. Lipoid pnevmoniya, nafas yo'llari o'smalari paydo bo'lishi mumkin. Dermatitlar, ekzemalar, follikulitlar, moyli husnbuzarlar. Keratoderma papillomalari, teri saratoni.
Uayt-spirt IV sinf, 300 mg/m ³ , b.	Rezinalar, kauchuklar, smolalar, plastmassalar, bo'yoqlar va laklar erituvchisi	O'tkir zaharlanishda - ko'z shilliq qavatlar va yuqori nafas yo'llarining qo'zg'alishi, tushkunlik, bosh og'rig'i, zaharli gepatit kuzatiladi. Surunkali zaharlanishda - astenovegetativ sindrom, qon bosimining pasayishi, zaharli gepatit, buyraklarning zararlanishi, terining quruqlashishi va dermatitlar paydo bo'ladi.

Uglerod oksidi, IV sinf, 20 mg/m ³ , bug‘	Tarkibida uglerod bo‘lgan moddalarning to‘liq yonishi natijasida hosil bo‘ladi. Avtomobillarning chiqindi gazlarida, qozonxonalarda, payvandlash, quyish va temirchilik sexlarida uchraydi.	Gemoglobinning bloklanishi va kislorod tashilishining buzilishi natijasida to‘qima gipoksiyasi yuzaga keladi. Zaharlanishning yengil darajasida bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, quloqlarda shovqin, mushak zaifligi, qusish va hushdan ketish holatlari kuzatiladi.
Ishlov beriladigan detallarning yuqori harorati	Shina ta‘mirlash, temirchilik va akkumulyator ishlari	Ish joyida mikroiklimning o‘zgarishi, ishlovchi tanasining qizishi va termik kuyish xavfi mavjud.
Shovqin	Dvigatelni sinash, texnologik uskunalar va ventilyatorlarning ishlashi, parchinlash ishlari. Havo kompressorlari, qo‘l pnevmatik asboblari, charxlash stanoklari, temirchilik-presslash uskunalarining ishlashi.	Markaziy asab tizimining funksional buzilishlari, tez charchash, umumiy holsizlik, bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, asabiylashish, uyquning buzilishi, xotiraning pasayishi kuzatiladi. Quloqlarda kuchayib boruvchi shovqin va keyinchalik ko‘xlear nevrinining rivojlanishi ro‘y beradi.
Tebranish	Tebranuvchi asboblari (elektr drel, tebranma bolg‘a) bilan ishlash, mashinalar, dvigatellar va asbob-uskunalar ishlayotganda polning silkinishi va to‘siqlarning tebranishi.	Teri sezuvchanligining barcha turlari pasayishi, qo‘llarda og‘riq va uvishish, mushaklar zaiflashuvi, tez charchash.

3. HUDUD VA ISHLAB CHIQARISH BINOLARI HAMDA XONALARINI JOYLASHTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

3.1 Avtomobil ta‘mirlash va vulkanizatsiya ustaxonalari hududi, undagi binolar, inshootlar, avtomobillarni saqlash maydonlari sanitariya, qurilish va yong‘inga qarshi me‘yorlar talablariga javob berishi shart.

3.2 Hudud tekis yuzali bo‘lishi, yomg‘ir suvlari uchun suv oqizgichlar va novlarga ega bo‘lishi kerak.

3.3 Yer osti suvlari sathi yerto‘la xonalari va ko‘rik kanallarining chuqurligidan pastda bo‘lishi lozim.

3.4 Barcha kirish yo‘llarining qoplamasi qattiq bo‘lishi shart (beton, asfalt, tosh va hokazo).

3.5 Bo‘sh hudud ajratilishi kerak. Ishlab chiqarish binolariga tutashgan yo‘laklar va o‘tish joylari yozda sug‘orilishi, qishda esa qordan tozalanishi va muz qoplagan taqdirda qum yoki shlak sepilishi lozim.

3.6 Avtomobillarni saqlash xonalarining pollari qattiq qoplamali, tekis, chuqurchalarsiz, traplar va suv oqishi uchun novlar tomonga qiya bo'lishi kerak. Pol materiali yonilg'i-moylash materiallariga chidamli bo'lishi va tozalash uchun qulay - silliq, sirpanmaydigan yuzani ta'minlashi lozim.

3.7 Avtomobillarni saqlash xonalari quyidagi xonalar bilan bevosita tutashmagan bo'lishi kerak: akkumulyator, atsetilen-generator, payvandlash, termik ishlov berish, tibbiyot, vulkanizatsiya, duradgorlik, temirchilik, qoplama, bo'yoq va regeneratsiya ishlari uchun mo'ljallangan xonalar; moy, artish materiallari va tez yonuvchan moddalarni saqlash xonalari; qozonxona; avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xonalari.

3.8 Siqilgan tabiiy gazda ishlaydigan avtomobillarni saqlash xonalarini yer osti qavatlarida, shuningdek boshqa korxonalar va turli maqsadlarga mo'ljallangan binolarga tutash qurilmalarda joylashtirish taqiqlanadi.

3.9 Ustaxonalar hududida avtomobillarga yonilg'i va moylash materiallari quyish shoxobchalari joylashtirilganda, oqova suvlar va neft mahsulotlarining ushbu hududdan tashqariga chiqishi imkoniyati istisno etilishi lozim.

3.10 Dala sharoitida avtomobillarning vaqtinchalik to'xtash joylari va avtota'mirlash ustaxonalari ang'iz va quruq o'tlardan tozalangan hamda atrofi bo'ylab 3 metrli yo'lak qilib haydalgan maydonchalarda tashkil etiladi. Turar-joy binolari, omborxonalar, poxol g'aramlari, xirmonlar, o'rmon ekinzorlari, paxta qabul qilish punktlari va shunga o'xshash inshootlardan kamida 100 metr uzoqlikda joylashtirilishi shart.

4. ISHLAB CHIQRISH BINOLARI

4.1 Xonalardagi pollar tekis va pishiq, sirti silliq, ammo sirpanchiq bo'lmasligi, foydalanish joylarida kislotalar, ishqorlar, neft mahsulotlari ta'siriga chidamli bo'lishi kerak.

4.2 Zararli moddalar, ortiqcha issiqlik, shovqin ajralib chiqadigan ish uchastkalari alohida xonalarda joylashtirilishi yoki boshqa uchastkalardan yaxlit to'siqlar bilan ajratilishi lozim.

4.3 Avtomobillarni yuvish joylari boshqa uchastkalardan bug' o'tkazmaydigan va suvga chidamli qoplamali devorlar yoki to'siqlar bilan ajratiladi. Pollar qabul qiluvchi quduqlar va novlar tomon qiyalikka ega bo'lishi lozim, ularning joylashuvi korxona hududiga oqova suvlarning tushishini oldini olishi kerak. Mexanizatsiyalashtirilgan yuvishda yuvuvchining ish o'рни suv o'tkazmaydigan kabinaga joylashtirilishi shart.

4.4 Ko'rik kanallar va ularga olib boruvchi zinapoyali estakadalar yonmaydigan materiallardan tayyorlanishi hamda namlik va yer osti suvlaridan himoyalangan bo'lishi kerak. Devorlar och rangli keramik plitalar bilan qoplanadi. Traplar mavjud bo'lganda, pollar ular tomon qiyalikka ega bo'lishi lozim. Polga mustahkam yog'och panjaralar o'rnatilishi shart.

4.5 Chuqur, xandaq va tonnellardan chiqadigan narvonlar avtomobillar harakatlanadigan yo'ldan tashqarida joylashtirilishi kerak. Yakka berk ariqdan chiqish avtomobillar kiradigan yo'lga qarama-qarshi tomondan bo'lishi lozim.

4.6 Bo'yash, bo'yoq tayyorlash, zanglashga qarshi ishlar bajariladigan xonalarda, gaz generatorlarida, yonuvchi suyuqliklar va gazlar omborxonalarida pollar metall buyumlar urilganda uchqun chiqarmaydigan materiallardan tayyorlanishi kerak.

4.7 Akkumulyator ishlari uchun boshqa ishlab chiqarishlardan ajratilgan, o'zaro tutashgan uchta xona ko'zda tutilishi lozim:

- a) ta'mirlash uchun,
- b) akkumulyator batareyalarini quvvatlash uchun,
- v) kislotalarni saqlash uchun,

Akkumulyator batareyalarini bir vaqtning o'zida (10 tadan ortiq bo'lmagan) zaryadlashda, batareyalarni ta'mirlash xonalarida zaryadlashni amalga oshirishga ruxsat etiladi. Bu jarayon zaryadlash qurilmasi bilan blokirovka qilingan individual so'rish ventilyatsiyasiga ega so'rish shkaflarida bajarilishi lozim.

4.8 Bo'yash ishlarini bajarish uchun 2 ta xona ko'zda tutilishi kerak: biri bo'yash va quritish postlari uchun, ikkinchisi esa bo'yoqlar tayyorlash uchun.

4.9 Mahsulotlarni issiq quritish kameralari tashqi harorati $+45^{\circ}\text{S}$ dan oshmaydigan issiqlik izolyatsiyasi bilan jihozlanishi shart.

4.10 Payvandlash postlari maydoni kamida 3 m^2 bo'lgan yonmaydigan kabinalarda joylashtirilishi kerak. Kabina devori bilan pol orasidagi tirqish 50 mm dan kam bo'lmashligi lozim. Xonalar va kabinalarining devorlari kulrang, sariq yoki havo rang tusda xira yuzali qilib bo'yalgan bo'lishi kerak.

4.11 Avtomobilning o'zida gaz ta'minoti tizimi asboblarini sozlash xonasi boshqa ishlab chiqarish xonalaridan alohida bo'lishi shart.

4.12 Atsetilen va kislorod balonlarini suyultirilgan gaz bilan, shuningdek kaliy kribidi, bo'yoqlar, erituvchilar va moylarni birgalikda saqlash qat'iyan man etiladi.

4.13 Korxonaga kelib tushadigan barcha materiallar (loklar, bo'yoqlar, erituvchilar, kislotalar va hokazo) faqat ularning pasportlari mavjud bo'lgandagina qabul qilinishi va qo'llanilishi mumkin. Ularni saqlash uchun barcha idishlarda ichidagi materialning aniq nomi yozilgan yorliqlar bo'lishi shart. O'zaro ta'sirlashuvchi moddalarni alohida saqlash lozim.

5. YORITISH

5.1 Ishchi va yordamchi xonalarning tabiiy yoritilishi amaldagi me'yorlarga to'liq mos kelishi kerak.

5.2 Avtomobillarni saqlash xonalari, omborxonalar, shuningdek doimiy bo'lmagan boshqa xonalar tabiiy yoritishsiz bo'lishi mumkin.

5.3 Deraza oynalari, fonarlar va yoritish uskunalarini tozalash yiliga kamida 4 marta amalga oshirilishi shart.

5.4 Yorug'lik fonarlari mavjud bo'lganda, ishchilarni oynalarning tushishidan himoya qilish choralari (armaturalangan oyna bilan oynalash, to'rlar o'rnatish va hokazo) ko'zda tutilishi lozim.

5.5 Atsetilen generatori uchun mo'ljallangan xonalar devordagi maxsus qurilgan tokchalar yoki fonarlar orqali zich yopilgan derazalar orqali tashqi elektr yoritishga ega bo'lishi kerak.

5.6 Ish joylarida yoritgichlar 2-jadvalda ko'rsatilgan me'yorlardan kam bo'lmagan yoritilganlikni ta'minlaydigan tarzda o'rnatilishi lozim:

2-jadval

Asosiy xonalar va ishlab chiqarish uchastkalarining yoritilganlik me'yorlari

Postlar va ishlab chiqarish uchastkalari	Yoritilganlikni me'yorlash tekisligi va uning poldan balandligi (m)	Yoritilganlik (kombinatsiyalangan yoritishda) (lk)
1. Avtomobillarni yuvish va tozalash	pol	150 (-)
2. Avtomobillarga kundalik xizmat ko'rsatish	vertikal, avtomobilda	75 (-)
3. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash	pol	200 (300)
4. Ko'rik chuqurchalari	gorizontal, avtomobil osti	150 (-)
5. Elektr uskunolari va ta'minot tizimini, motor, agregat, chilangarlik-mexanika uchastkalarini ta'mirlash	gorizontal, 0,8	300 (750)
6. Temirchilik-ressor, payvandlash, tunukachilik, misgarlik-radiator, bo'yoq tayyorlash va bo'yash, ta'mirlash	" _ " _ "	200 (500)
7. Yog'ochga ishlov berish, qoplama, shinalarni ta'mirlash va montaj qilish	" _ " _ "	200 (300)
8. Avtomobillarni saqlash: xonalar ochiq maydonchalar	pol pol	20 (-) 5 (-)
9. Omborlar: kimyoviy suyuqliklarning moddiy asboblari	pol pol	75 (-) 30 (-)
10. Yordamchi va sanitariya-maishiy xonalar	pol	75 (-)
11. Kabinetlar va ish xonalari	gorizontal 0,8	200 (300)

5.7 Ishlab chiqarish va ombor xonalarida yoritilganlikning tebranish koeffitsiyenti 20% dan oshmasligi kerak.

5.8 Favqulodda yoritish ishchi yuzalarning yoritilganligini umumiy yoritish uchun belgilangan me'yorlarning kamida 5% miqdorida, lekin 2 lk dan kam bo'lmagan darajada ta'minlashi lozim.

5.9 Evakuatsiya yoritishi odamlar o'tishi xavfli bo'lgan joylarda, asosiy o'tish yo'laklari va zinapoyalarda xonalarda polning yoritilganligini kamida 0,5 lk va ochiq hududlarda kamida 0,2 lk darajasida ta'minlashi kerak.

5.10 Rang uzatishga yuqori talablar qo'yilganda va yoritgichlar 4-6 metrdan kam bo'lmagan balandlikda o'rnatilganda lyuminessent lampalar qo'llanilishi kerak. O'rnatish balandligi 4-6 metr bo'lganda ham lyuminessent lampalar, ham DRL va DRI lampalar, 6 metrdan yuqori bo'lganda esa faqat DRL va DRI lampalar qo'llanilishi mumkin.

Avtomobillarni saqlash joylarini yoritish uchun natriy lampalari qo'llanilishi mumkin.

5.11 Kuzatuv chuqurlarini 127-220 volt kuchlanish bilan ta'minlanadigan yoritgichlar bilan yoritishga, barcha simlar ishonchli elektr va gidroizolyatsiya bilan yashirin joylashtirilgan bo'lsa, ruxsat etiladi; yoritish armaturasi va o'chirgichlar elektr va gidroizolyatsiyaga ega bo'lishi, yoritgichlar shisha bilan qoplanishi va himoya panjarasi bilan o'ralishi, yoritgichlarning metall korpusi yerga ulanishi shart.

5.12 Avtomobil tagidagi ish joyini yoritish uchun yotqizilgan joyga 42 V dan oshmaydigan kuchlanishli buriladigan chiroqlar o'rnatiladi.

5.13 Chang ajralib chiqishi mumkin bo'lgan sexlarda o'chirgichlar, rubilniklar, saqlagichlar va shunga o'xshash moslamalar yonmaydigan materiallardan yasalgan zich qopqoqlar bilan yopilgan bo'lishi kerak.

6. SHAMOLLATISH VA ISITISH

6.1 Ishlab chiqarish, yordamchi va sanitariya-maishiy xonalar amaldagi me'yorlar doirasida ish maydonining mikroiklimini ta'minlaydigan umumiy almashinuv haydovchi-so'ruvchi shamollatish va isitish tizimlari bilan jihozlangan bo'lishi shart.

6.2 Yilning sovuq faslida ko'rik chuqurchalaridagi ish maydoniga beriladigan havo harorati $+25^{\circ}\text{C}$ dan yuqori va $+16^{\circ}\text{C}$ dan past bo'lmasligi kerak.

6.3 Isitish tizimi xonadagi havoning bir tekis isishini, sozlash va o'chirish imkoniyatini, foydalanish qulayligini hamda ta'mirlash uchun oson kirish yo'lini ta'minlashi lozim.

6.4 Zararli moddalar, chang, ortiqcha issiqlik va namlik ajralib chiqadigan joylarda ish maydonidagi havoda zararli moddalar miqdori ruxsat etilgan chegaraviy konsentratsiyalar darajasidan oshmasligini ta'minlovchi mahalliy so'ruvchi shamollatish qurilmalari o'rnatilishi kerak (2-bo'lim jadvaliga qarang).

6.5 Zararli moddalarni bevosita ular hosil bo'ladigan joylardan chiqarib tashlash uchun xonalarda quyidagi mahalliy so'rg'ichlar o'rnatilishi zarur:

So'ruvchi shkaflar	Yoqilg'i tizimini ta'mirlash uchastkalarida erituvchili vannalar uchun va akkumulyator bo'limining zaryadlash xonasida.
So'ruvchi kameralar	Temirchilik o'choqlari, karbyuratorlarni qismlarga ajratish va yuvish, rezina yelim tayyorlash, shikastlangan shinalar va kameralarni ta'mirlash va yamash, qo'rg'oshin eritish, elektrolit tayyorlash va yuvish, akkumulyator batareyalarini yig'ish va qismlarga ajratish joylari, separatorlarni tanlab eritish va oksidlash vannalari, bo'yoq tayyorlash stoli va boshqalar ustida.
So'rish panellari	Payvandlash postlari oldida va soyabonlarni o'rnatishning texnologik imkoniyati bo'lmagan hollarda ular o'rniga
Himoya qoplamalari	Zararli modda ajralib chiqadigan joyga iloji boricha yaqinlashtirish kerak bo'lgan qismlarda - kavsharlash, karbyuratorlarni qismlarga ajratish va tekshirish, nazorat aralashmalari va bo'yoqlar tayyorlash va boshqalar.
Himoya qobiqlari	Charxlash va silliqdash dastgohlarida.
Tirqishli so'rg'ichlar	Akkumulyator batareyalarini zaryadlash uchun mo'ljallangan joylarda
Chekka so'rg'ichlar	Ochiq suyuqlik idishlari yonida (detal va agregatlarni yuvish uchun vannalar)
Vakuimli stollar	Payvandlash postlarida.
Shlangsiz va shlangali so'rg'ichlar	Dvigatellarning chiqindi gazlarini chiqarib tashlash uchun diagnostika postlarida, dvigatellarni sinash va ularga ishlov berish uchastkalarida.

6.6 Isitish tizimida issiqlik tashuvchi sifatida issiq suvdan foydalanilganda, uning harorati 150°C dan, suv bug'ining harorati esa 130°C dan oshmasligi kerak. Havo bilan isitish tizimida, agar havo chiqish teshigidan ish joyigacha bo'lgan masofa 2 m dan kam bo'lsa, kiruvchi havo harorati 45°C bilan, uzatish balandligi 3,5 m dan ortiq bo'lganda esa 70°C bilan cheklanadi. Yilning sovuq davrida ish zonasi va ko'rik kanallariga havo +25°C dan yuqori bo'lmagan va +16°C dan past bo'lmagan haroratda uzatilishi lozim.

6.7 Siqilgan gazda ishlaydigan avtomobillar uchun xonalar umumiy almashinuv, tabiiy so'rish va portlashdan himoyalangan avariya ventilyatsiyasi bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Avariya ventilyatsiyasi ishlab chiqarish xonasi havosida gaz konsentratsiyasi portlashning quyi chegarasidan 20% ga yetganda bir vaqtning o'zida tovush va yorug'lik signallarini berib, ventilyatsiya tizimlari va avariya yoritishdan tashqari barcha elektr energiyasi iste'molchilarini o'chirishi lozim.

6.8 Yilning sovuq davrida ish zonasiga va ko'rik chuqurchalariga beriladigan havo harorati $+25^{\circ}\text{C}$ dan yuqori va $+16^{\circ}\text{C}$ dan past bo'lmash kerak.

6.9 Hisobiy qishki haroratda mahalliy so'rg'ichlar bilan chiqarib yuborilayotgan havoni qoplash uchun berilayotgan havo miqdori yetarli bo'lishi kerak.

6.10 Gulqog'oz ishlari va boshqa tarqoq chang ajraladigan xonalarda kelayotgan havoni yuqori zonaga tarqatib berish ko'zda tutiladi.

6.11 Atsetilen generatori xonalaridagi keluvchi mexanik ventilyatsiya portlashdan xavfsiz tarzda bajarilgan bo'lishi kerak. So'ruvchi ventilyatsiya tabiiy tortish kuchiga ega bo'lishi lozim.

6.12 Moyni qayta ishlash va ta'mirlash, akkumulyator batareyalarini zaryadlash, plastmassa buyumlarni presslash, bo'yoq tayyorlash, bo'yash, temirchilik, misgarlik, kuzov va vulkanizatsiya ishlari uchun xonalar alohida so'ruvchi ventilyatsiya tizimlari bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

6.13 Zararli moddalar ajralib chiqadigan va ventilyatsiya tizimi nosoz yoki ishga tushirilmagan ishlab chiqarish xonalarida ishlash taqiqlanadi.

6.14 Xonalardan chiqarib yuboriladigan havo tashqariga chiqarishdan oldin chang va kimyoviy moddalardan tozalanishi shart.

6.15 Kiritilayotgan havoni olish, agar ular orasidagi masofa 20 metrdan kam bo'lmasa, ifloslangan havoni chiqarish nuqtasidan kamida 6 metr pastda, ifloslanishdan himoyalangan va uzoqroq joylarda amalga oshirilishi lozim.

6.16 Foydalanishga topshirishdan oldin barcha yangi ta'mirlangan yoki qayta qurilgan ventilyatsiya tizimlari sozlanishi va sinovdan o'tkazilishi kerak. Bu ishlar ixtisoslashtirilgan tashkilot tomonidan belgilangan tartibda dalolatnoma tuzish bilan bajarilishi shart.

6.17 Texnologik jarayonlar o'zgarganda, shuningdek havoni ifloslantiruvchi ishlab chiqarish uskunalari o'rni almashtirganda, mazkur uchastkada ishlaydigan ventilyatsiya qurilmalari yangi sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

7. SUV TA'MINOTI VA KANALIZATSIYA

7.1 Avtomobillarni ta'mirlash korxonalari amaldagi sanitariya va qurilish me'yorlariga muvofiq xo'jalik-ichimlik, ishlab chiqarish suv quvurlari, maishiy va ishlab chiqarish oqava suv tizimlari bilan jihozlanadi.

7.2 Yilning sovuq davrida avtomobilni qo'lda yuvish paytida suvning harorati $+20^{\circ}\text{C}$ dan past va $+60^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo'lmash kerak.

7.3 Kanalizatsiya tarmog'i mavjud bo'lmaganda, oqava suvlarni tozalash va ularni oqizish joyini tanlash yer usti suvlarini oqava suvlar bilan ifloslanishdan muhofaza qilish qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi shart.

7.4 Ishlab chiqarish oqova suvlari kanalizatsiyaga tushirishdan oldin yoqilg'i-moylash suyuqliklari va muallaq moddalardan tozalanishi shart.

7.5 Benzin va moy tutgichlar soz gidravlik qulf va tabiiy shamollatish tizimiga ega bo'lishi lozim.

8. SANITARIYA-MAISHIY XONALAR VA ISHLAB CHIQARISH SANITARIYASI

8.1 Avtomobillarni ta'mirlash va vulkanizatsiya ustaxonalari xodimlari uchun ishlab chiqarish jarayonlari guruhiga qarab QMQ 2.09.04-98 "Korxonalarining ma'muriy va maishiy binolari" talablariga muvofiq quyidagi sanitariya-maishiy xonalar ko'zda tutilishi kerak:

1. Gaz ballonli avtomobillar ballonlarini tekshiruvchi chilangar, metallarga mexanik ishlov beruvchi stanokchi, elektrik, shtampovkachi, presslovchi, tunukachi, duradgor, mebelchi, shinalar montajchisi.	1b	Ikki bo'limli shkaflar.
2. Etillangan benzinda ishlaydigan yonilg'i uskunalari va avtomobillarni ta'mirlovchi chilangar, jihozlar va asboblarni ta'mirlovchi chilangar.	1v	Bir bo'limli shkaflar. Maxsus kiyimlarni kimyoviy tozalash yoki yuvish.
3. Ressor-temirchi, termist, gaz payvandchi (gaz bilan kesuvchi), elektr payvandchi, metallizator, vulkanizator.	2b	Ikki bo'limli shkaflar. Sovutish xonalari
4. Tozalovchi va yuvuvchi (harakatlanuvchi tarkib, agregatlar, detallar va qismlar, shuningdek yuvish va yuvish-tozalash qurilmalari jihozlari).	2v	Bir bo'limli shkaflar. Maxsus kiyim va poyabzallarni quritish.
5. Isitilmaydigan xonalarda va ochiq havoda bajariladigan ishlar.	2g	Bir bo'limli shkaflar. Maxsus kiyim va poyabzallarni isitish va quritish xonalari.
6. Etillangan benzinda ishlaydigan yonilg'i uskunalari va avtomobillarni ta'mirlash bo'yicha chilangar; yuvuvchi (etilangan benzinda ishlaydigan dvigatel qismlarini yuvish); etillangan benzin bilan to'ldiruvchi; bo'yoqchi; akkumulyatorchi, misgar; galvanik qoplamachi; tozalash inshootlari operatori.	3b	Har bir bo'lim uchun alohida shkaflar. Kiyimlarni kimyoviy tozalash. Maxsus kiyimlarni saqlash joylarida sun'iy shamollatish.
7. Ma'muriy va yordamchi ishlar	1a	Umumiy bitta bo'lim

8.2 Ifloslangan va zararli moddalar bilan aloqada bo'lgan ishchilar uchun dush xonalari ko'zda tutilishi shart. Bu ishchilar yuvuvchi va zararsizlantiruvchi moddalar bilan ta'minlanishi lozim.

8.3 Moylash-sovitish suyuqliklari, texnologik moylar, erituvchilar, bo'yoqlar, ishqorlar va boshqa kimyoviy moddalar bilan ishlaydigan ishchilar

teri bilan aloqasining oldini olish uchun himoya surtmalari, pastalari va tozalovchi suyuqliklar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Texnologik moylardan tozalash uchun sovun, kir yuvish kukunlari, soda ishlatish qat'iyan man etiladi.

8.4 Sanitariya-maishiy yoki ishlab chiqarish xonalarida dam olish xonasi har bir ishlovchi uchun 0,2 m² hisobidan, lekin kamida 18 m² bo'lishi kerak.

8.5 Ishchilar soni kamida 30 kishi bo'lgan korxonada dam olish xonalari ovqatlanish xonalari bilan birlashtirilib, har bir tashrif buyuruvchi o'rni uchun 1,0 m² hisobidan, lekin kamida 12 m² ajratilishi, hamda yuvingich, statsionar suv qaynatgich, ovqatni isitish uchun plita va sovutgich bilan jihozlanishi mumkin.

8.6. Ichimlik suvi ta'minoti uchun avtomatlar, favvoralar, favvorali nasadkali yopiq idishlar va boshqa qurilmalarni ko'zda tutish lozim.

8.7. Temirchilik va boshqa issiq uchastkalar ishchilari bir smenada ishlaydigan har bir ishchiga 3-5 litr hisobidan gazlangan tuzli suv (1 litr suvga 5 grammacha osh tuzi) bilan ta'minlanishi kerak.

8.8. Ishchilarni gazlangan va tuzli suv bilan ta'minlash ma'muriyatni umumiy asoslarda ishchilarni chuchuk suv bilan ta'minlash majburiyatidan ozod etmaydi.

8.9. Maxsus kiyimlarni yuvish va kimyoviy tozalash korxona tomonidan o'z hisobidan amalga oshiriladi. Bu vaqt davomida ishchilarga almashtirish to'plamlari berilishi shart.

8.10. Odatda maxsus kiyimlarni kuchli ifloslanishda - har 6 kunda bir marta, o'rtacha ifloslanishda - har 10 kunda bir marta yuvish lozim.

8.11. Ish sharoitlari talab qilsa, asboblarni tashish uchun ishchiga sumka, yengil ko'chma quti yoki maxsus harakatlanuvchi arava berilishi kerak.

8.12. Ko'zdan kechirish chuqurchasi, ko'targich, estakadadan tashqarida turgan avtomobil tagida ishlarni bajarish uchun ishchilar yotib ishlash vositalari bilan ta'minlanishi lozim. Yotish vositasiz polda (yerda) yotib ishlash taqiqlanadi.

8.13. Zararli va xavfli sharoitlarda ishga kirayotgan va ishlayotgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'iga muvofiq ishga kirishda majburiy dastlabki va davriy tibbiy ko'riklardan o'tishlari shart.

8.14 Akkumulyator bo'limida yuvingich, sovun, qadoqlangan paxta, sochiq hamda 5% va 10% li neytrallovchi osh sodasi eritmasi (tana terisi uchun) va 2% va 3% li neytrallovchi osh sodasi eritmasi (ko'zlar uchun) solingan yopiq idishlar bo'lishi shart.

Ishqorli akkumulyatorlardan foydalanishda neytrallovchi eritma sifatida 5-10% li borat kislota eritmasi (tana terisi uchun) va 2-3% li borat kislota eritmasi (ko'zlar uchun) qo'llaniladi. Xuddi shunday eritmalar misgarlik-tunukasozlik va kuzov ishlari xonalarida ham mavjud bo'lishi lozim.

9. ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH

9.1 Avtomobillarni ta'mirlash va vulkanizatsiya ustaxonalarini loyihalash va jihozlashda amaldagi sanitariya me'yorlari, qoidalar va me'yoriy-texnik hujjatlarga muvofiq chiqarilayotgan havoni chang, kimyoviy moddalar bug'lari, aerozollar, sovutuvchi-moylash suyuqliklari va yonilg'i-moylash materiallaridan tozalash tizimlari ko'zda tutilishi shart.

9.2 Ishlab chiqarish oqova suvlari va yomg'ir kanalizatsiyasi tizimlarida ularni hududiy kanalizatsiya kollektoriga tashlashdan oldin moylar, kimyoviy birikmalar va neft mahsulotlaridan tozalash nazarda tutilishi kerak.

9.3 Kirish yo'llari, maydonchalar va to'xtash joylari qattiq, barqaror qoplamaga ega bo'lishi, suv havzalari va tuproqning neft mahsulotlari bilan ifloslanishini oldini oladigan yomg'ir oqimlari va moy ushlagichlar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

9.4 Qipiqalar, lattalar, metall qirindilari va boshqa materiallarning ifloslanishini yig'ish uchun ifloslangan ikkilamchi materiallarning hudud bo'ylab tarqalishini oldini oladigan maxsus konteyner nazarda tutilishi kerak.

10. LABORATORIYA-INSTRUMENTAL NAZORAT

10.1 Ustaxonalarni ishga tushirishda, ishlab chiqarish jarayonini o'zgartirish va qo'shimcha kiritishda, texnologik yoki sanitariya-texnik uskunalarni, yoritish qurilmalarini almashtirish yoki ta'mirlashda, shuningdek, joriy sanitariya nazorati davomida ish zonasidagi havoni nazorat qilish amalga oshirilishi shart.

10.2 Mehnat sharoitlari va ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta'siri ustidan laboratoriya-instrumental nazorat amaldagi GOST standartlari va sanitariya qoidalariga muvofiq o'tkazilishi lozim.